

## **Ma'lumotlar bazasi faoliyati raqamli tizimlar bilan takomillashmoqda**

Namangan davlat pedagogika institutida Registrator ofisi faoliyati raqamli tizimlar asosida takomillashtirilib, talabalar, abituriyentlar hamda tashrif buyuruvchilarga qulay, tezkor va shaffof xizmat ko'rsatish tamoyillari asosida yo'lga qo'yilgan.

Institutda o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini tizimli muvofiqlashtirish Registrator ofisining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, talabalar kontingenti harakatini hisobga olish, tegishli buyruqlarni rasmiylashtirish va akademik jarayonlarni tartibga solish ishlari ham mazkur ofis tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar bazasi faoliyati Registrator ofisining muhim yo'nalishi sifatida shakllantirilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda talabalar kontingenti bo'yicha ma'lumotlarni yuritish, shaxsiy hujjatlarni qabul qilish va saqlash, joriy transkript hamda diplom ilovalarini rasmiylashtirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, akademik ta'til, o'qishni ko'chirish, tiklash va talabalar safidan chetlashtirish bilan bog'liq murojaatlar hujjatlashtirilib, diplomlarning haqiqiylikini tasdiqlash jarayonlari ham tizimli ravishda tashkil etilgan.

Bugungi kunda institutda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom ettirilmoqda. Xususan, [dc.namspi.uz](http://dc.namspi.uz) — Digital Campus platformasi orqali foydalanuvchilarga zamonaviy elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Ushbu platforma orqali talabalar akademik ta'til olish, o'qishni tiklash, talabalar safidan chetlashtirish hamda familiyani o'zgartirish bo'yicha onlayn ariza topshirish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini soddalashtirib, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish hamda xizmatlar tezkorligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Registrator ofisi tomonidan kiruvchi va chiquvchi hujjatlarni qabul qilish hamda rasmiylashtirish, abituriyentlar va tashrif buyuruvchilarga ma'lumot berish, hujjatlarni arxivlashtirish, talabalar murojaatlarini ko'rib chiqish va ro'yxatga olish jarayonlarini yuritish kabi keng ko'lamli xizmatlar ham amalga oshirilmoqda.

Namangan davlat pedagogika instituti kelgusida ham Registrator ofisi faoliyatini yanada takomillashtirish, raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda talabalarga zamonaviy, qulay va shaffof xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishni davom ettiradi.

At the Namangan State Pedagogical Institute, the activities of the registrar's office have been improved based on digital systems and established on the principles of convenient, prompt, and transparent service for students, applicants, and visitors.

One of the primary tasks of the registrar's office is to effectively organize the educational process at the institute, enhance the quality of services provided to students, and systematically coordinate documentation processes.

This office also maintains records of student movement, issues relevant orders, and regulates academic processes.

The activities of the database have been established as an important direction for the Registrar's office, and work is being carried out in this direction to maintain information on the student body, accept and store personal documents, and process current transcripts and diploma applications. Appeals related to academic holidays, transfers, reinstatement, and expulsion from the student body were also documented, and the verification of diplomas was systematically organized.

Currently, digital transformation processes are consistently continuing at the institute. In particular, through the [dc.namspi.uz](http://dc.namspi.uz) platform — Digital Campus — users are provided with the opportunity to use modern electronic services. Through this platform, students can apply online for academic leave, reinstatement, expulsion from the student body, and surname change. This contributes to simplifying the process of reviewing appeals, reducing unnecessary time costs, and ensuring the promptness and transparency of services.

Additionally, the Registrar's office provides a wide range of services, such as receiving and processing incoming and outgoing documents, providing information to applicants and visitors, archiving documents, reviewing student applications, and managing registration processes.

Namangan State Pedagogical Institute will continue to improve the activities of the Registrar's office, expand the scale of digital services, and develop a modern, convenient, and transparent system for serving students.

В Наманганском государственном педагогическом институте деятельность офиса регистратора усовершенствована на основе цифровых систем и налажена на принципах удобного, оперативного и прозрачного обслуживания студентов, абитуриентов и посетителей.

Одной из основных задач офиса регистратора является эффективная организация учебного процесса в институте, повышение качества услуг, оказываемых студентам, а также системная координация процессов работы с документами.

Также этим офисом осуществляется учет движения студенческого контингента, оформление соответствующих приказов и регулирование академических процессов.

Деятельность базы данных сформирована как важное направление офиса Регистратора, в этом направлении ведется работа по ведению информации о контингенте студентов, приему и хранению личных документов, оформлению текущего транскрипта и приложений к дипломам. Также были документированы обращения, связанные с академическими каникулами, переводами, восстановлением учебы и отчислением из рядов студентов, а также систематически организованы процессы подтверждения подлинности дипломов.

В настоящее время в институте последовательно продолжаются процессы цифровой трансформации. В частности, через платформу [dc.namspi.uz](https://dc.namspi.uz) — Digital Campus — пользователям предоставлена возможность пользоваться современными электронными услугами. Через эту платформу студенты могут подать онлайн-заявление на получение академического отпуска, восстановление учебы, отчисление из рядов студентов и изменение фамилии. Это способствует упрощению процесса рассмотрения обращений, сокращению лишних затрат времени, а также обеспечению оперативности и прозрачности услуг.

Также офисом Регистратора осуществляется широкий спектр услуг, таких как прием и оформление входящих и исходящих документов, предоставление информации абитуриентам и посетителям, архивирование документов, рассмотрение обращений студентов и ведение процессов регистрации.

Наманганский государственный педагогический институт и в дальнейшем будет совершенствовать деятельность офиса Регистратора, расширять масштаб цифровых услуг и развивать современную, удобную и прозрачную систему обслуживания студентов.